

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
SAN'ATSHUNOSLIK INSTITUTI ARXEOLOGIK KOLLEKSIYASIDAGI
EKSPONATLARI CHET EL KO'RGAZMASIDA**

Abduqahhor Normurodov

O'zbekiston Fanlarakademiyasi San'atshunoslik instituti
abduqahhornormurodov54@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Germaniyadagi Jeyms Simon galereyasi va unga tutash Berlin yangi muzeyida tashkil etilgan ko'r gazma namoyishi haqida so'z boradi. Jumladan, ko'r gazmani ahamiyati, uni tashkil etish, eksponatlarni ko'r gazma uchun tayyorlash jarayonlari qisqacha yoritilgan. Shuningdek, ko'r gazmaga tanlab olingan arxeologik ashyolarni preventiv konservatsiyasi va ularni amalga oshirish usullari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Germaniya, O'zbekiston, ko'r gazma, Jeyms Simon, Berlin, muzey, madaniy meros, eksponat, qadimgi, arxeologiya, ashyo, restavratsiya, konservatsiya, qadoqlash

**EXHIBITS FROM THE ARCHAEOLOGICAL COLLECTION OF THE
INSTITUTE OF ART STUDIES OF THE ACADEMY OF SCIENCES OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN ARE AT A FOREIGN EXHIBITION**

Abdukhakhor Normurodov

Institute of Art Studies of Academy of Sciences of Uzbekistan
abdukahhornormurodov54@gmail.com

Abstract: The article is devoted to the exhibition organized at the James Simon Gallery in Germany and the Museum Berlin. In particular, the significance of the exhibition, its organizational issues, and the processes of preparing exhibits for the

exhibition are briefly covered. The preventive conservation of archaeological objects selected for the exhibition and methods for its implementation are also described.

Keywords: Germany, Uzbekistan, exhibition, James Simon Gallery, Berlin, museum, cultural heritage, exhibit, ancient, archeology, restoration, conservation, packaging

O‘zbekiston jahon tamadduni tarixiga yorqin sahifalar bilan yozilgan buyuk davlatlarning davomchisidir. Boy madaniy merosni xolis va har tomonlama mukammal o‘rganish nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo uchun dolzarb vazifadir, chunki O‘zbekistonning madaniy merosi butun insoniyat mulki hisoblanadi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev respublikaga rahbar bo‘lganining dastlabki kunlaridanoq o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy va intellektual merosini asrab-avaylash va o‘rganish, milliy qadriyatlarni davlat siyosati darajasiga olib chiqish, navqiron avlodni umuminsoniy va madaniy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

Tashqi siyosatda ham keng ko‘lamli o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘zbekiston gumanitar sohada, turizm yo‘nalishlarida dunyoga o‘z eshiklarini ochdi. Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha respublika ishchi guruhlari tuzildi. Hududlarda turizm salohiyatini o‘rganish va turizm sohasidagi nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash, joylardagi aholi tomonidan turizm xizmatlaridan foydalanish, xorijiy sayyoohlarni O‘zbekistonga jalb qilish bo‘yicha turizm sohasidagi resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etish bo‘yicha qator qarorlar qabul qilindi¹. Qadimgi arxeologik yodgorliklar va me’moriy obidalarni ta’mirlash va tiklash, ulardan turizm ob’ektlari sifatida foydalanish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu bilan bir qatorda muzeylarda saqlanayotgan osori-atiqalarni saqlash, tadqiq etish va keng jahon hamjamiyatiga tanitish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.04.2023 yildagi PQ-135-son

Shunday amalga oshirilgan ishlardan biri Berlinda sayyoohlar ko‘p tashrif buyuradigan Jeyms Simon galereyasi va unga tutash Berlin yangi muzeyida tashkil qilingan qariyb 1000 kv.m maydonda O‘zbekistonning arxeologik yodgorliklari joy oldi. Bu ko‘rgazma 2023 yilning 4 may kunidan ochiladigan “Aleksandr Makedonskiydan Kushonlar imperiyasigacha” nomli ko‘rgazma Berlinga kelgan sayyoohlar uchun 2024 yilning 14 yanvarigacha ochiq bo‘ladi. Bundan avval shunga o‘xhash ko‘rgazma Parijdagi Luvr muzeyida ham namoyish etilgan va ko‘rgazma 3 oy davomida Luvrga tashrif buyurgan qariyb 300 ming mehmon O‘zbekiston tarixi haqida ma’lumotga ega bo‘lgan hamda madaniy merosimizga katta qiziqish bildirgan. Berlin ko‘rgazmasi esa uzoqroq muddat, ya’ni 8 oy davom etadi².

Ushbu ko‘rgazmada O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti arxeologik kolleksiyasidagi jami bo‘lib ro‘yxtga olingen 857 ta eksponatlar orasidan Germaniyaning Jeyms Simon galereyasi va Berlin yangi muzeyida bo‘lib o‘tadigan ko‘rgazma uchun 128 ta eksponatlar saralab olindi. Albtta bu ko‘rgazma uchun namoyishga qo‘yilgan eksponatlar ichida Fransianing poytaxti Parij shahridagi Luvr muzeyida 2022-2023 yillarda bo‘lib o‘tgan ko‘rgazmadan farqli o‘laroq bu ko‘rgazmada 14 ta maxobatli loy-ganch xaykallar, 25 ta keramika buyublari, 20 ta metaldan yasalgan buyumlar va bronzadan yasalgan o‘q yoy uchlari, 28 ta kumush, mis, bronza tangalar, 16 ta fil va xayvon suyaklaridan ishlangan buyumlar, 3 ta nefrit tosh, 2 ta devoriy sur’at parchalari, 4 ta marmar ohaktosh va toshdan ishlangan arxeologik ashyolar ko‘rgazmada ishtirok etdi. Ko‘rgazmadan avval Fransiya va Germaniyadan kelgan mutaxasis restavratorlar bilan institutimiz restavrator xodimlari birgalikda restavratsiya ishlari amalga oshirildi. Shuningdek bu ko‘rgazmada Makedoniyalik Iskandar – istilochilik yurishlari va dunyo hukmronligiga intilishi haqida ko‘rgazmaga qoyilgan eksponatlar orqali bilib olish mumkin. Bundan tashqari Shimoliy Baqtriyadagi buddaviylik san’ati va me’morchiligi ham bu ko‘rgazmada aloxida o‘rin tutadi. O‘tmishda O‘rta Osiyoning turli tarixiy-madaniy

² Sardor, Usmoniy “Makedonskiydan Kushonlar imperiyasigacha” / Usmoniy Sardor. — Текст : электронный // Kun uz : [сайт].

hududlarida keng tarqalgan buddaviylik dini – bu jahon dinlaridan biridir. O‘rta Osiyoga buddaviylik dini kirib kelgan birinchi tarixiy madaniy hudud – bu Baqtriya bo‘lgan³. Arxeologik materiallar Shimoliy Baqtriyada buddizmning keng tarqalganidan xabar beradi va bu arxeologik materiallar ushbu Berlin ko‘rgazmasida namoyish etilmoqda shu bilan bir qatorda buddaviylik me’morchiligidagi monastirlar va ibodatxona inshootlarida foydalanilgan kapitellarni ham ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek xojalikda foydalanilgan katta va kichik bo‘lgan ko‘zalar, likopchalar, suvdon idishlar ham bor bo‘lib bu o‘scha davrda bunday buyumlardan keng foydalanilganini bilishimiz mumkin.

Ushbu ko‘rgazmada so‘zga chiqgan Saida Mirziyoyeva Prezident Administratsiyasi Ijro etuvchi apparatining Kommunikatsiyalar va axborot siyosati bo‘yicha sho‘ba mudiri shunday deydi. “O‘tmishni tasavvur qila olish bugungi kunni teranroq tushunishga yetaklaydi va bugungi kunda O‘zbekiston zamonaviy va istiqbolga odimlovchi davlat hisoblanib, uning tarixiy ildizlari qadimiy tamaddunlarga borib taqaladi. Ba’zi shaharlarlarimiz dunyodagi eng ko‘hna shaharlar sirasiga kiradi. Ko‘plab yo‘l va madaniyatlar chorrahasidagi minglab yillar mobaynida mavj urgan jamiyatlar, turfa an’analar yaratgan, ilm-fan va san’at gullab-yashnagan makonda istiqomat qilayotganligimiz bois bizning betakror madaniy merosimiz ko‘p asrlik o‘zgarishlarning tasdig‘idir. Biz qadimiy tamaddunlar qay tarzda o‘zaro muomalada bo‘lgani, mahsulotlar va ilmu-urfon almashilgani, kurashlar olib borilgani, gurkiranigan cho‘qqilarga erishilib, tanazzulga yuz tutgani, qolaversa, bu jarayonlarda biz yashab kelayotgan bugungi dunyoimizni shakllantirganini o‘rganishga muvaffaq bo‘ldik. O‘zbekistondan olib borilgan osori atiqalar hamda Berlin davlat muzeylari eksponatlari bir paytlar qadimgi dunyoni tashkil etgan madaniyatlar o‘rtasidagi murakkab va maftunkor rishtalardan aks-sado berish imkonini beradi.

³ Pidaev, Sh O‘zbekistonning arxeologik xazinalari. Makedoniyalik Iskandardan Kushonlar sultanatigacha / Sh Pidaev, T. Mkrtichev. — 165. — Germaniya Berlin : Kulturverlag Kadmos. Volfram Burckhardt Waldenserstr. 2–4, 10551 Berlin, 2024. — 446 c.

“O‘zbekistonning arxeologik xazinalari: makedoniyalik Iskandardan Kushonlar saltanatigacha” nomli ko‘rgazma O‘zbekiston va Germaniya mutaxassislarining qizg‘in va sermahsul hamkorligi natijasidir⁴” deb o‘z fikrlarini bildirgan edilar. Xulosa qilib aytganda so‘nggi yillarda mamlakatimizda madaniy meros sohasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Bu O‘zbekistonning bunday keng ko‘lamli ko‘rgazmada namoyish etilishi, mamlakatimiz tarixi bilan yanada yaqinroq tanishtiribgina qolmay, yurtimiz, uning madaniyati va tarixiga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.04.2023 yildagi PQ-135-son
- 2) Sardor, Usmoniy “Makedonskiydan Kushonlar imperiyasigacha” / Usmoniy Sardor. — Текст : электронный // Kun uz : [сайт].
- 3) Saida, Mirziyoyeva O‘zbekistonning arxeologik xazinalari. Makedoniyalik Iskandardan Kushonlar saltanatigacha / Mirziyoyeva Saida. — 11. — Germaniya Berlin : Kulturverlag Kadmos. Volfram Burckhardt Waldenserstr. 2–4, 10551 Berlin, 2024. — 446 c.
- 4) Pidaev, Sh O‘zbekistonning arxeologik xazinalari. Makedoniyalik Iskandardan Kushonlar saltanatigacha / Sh Pidaev, T. Mkrtichev. — 165. — Germaniya Berlin : Kulturverlag Kadmos. Volfram Burckhardt Waldenserstr. 2–4, 10551 Berlin, 2024. — 446 c.

⁴ Saida, Mirziyoyeva O‘zbekistonning arxeologik xazinalari. Makedoniyalik Iskandardan Kushonlar saltanatigacha / Mirziyoyeva Saida. — 11. — Germaniya Berlin : Kulturverlag Kadmos. Volfram Burckhardt Waldenserstr. 2–4, 10551 Berlin, 2024. — 446 c.